



BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITUVCHINING INOVATSION FAOLIYATI

Qurbonova Shoira Narzullayevna

Buxoro davlat universiteti

To'yboyeva Nigora

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'qituvchining innovatsion faoliyati o'qituvchi kasb mahoratining shakllanishida qobiliyatning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, metod, innovatsion faoliyat, kasbiy faoliyat.*

Respublikamizda ta'lim va tarbiya borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati bilimdon, ongli, zamonaviy dunyoqarashga ega, jismonan sog'lom, aqlan pok, erkin, ijodkor, komil insonni shakllantirishdan iborat. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi.

O'qituvchi kasb mahoratining shakllanishida qobiliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagogik ko'nikma negizida o'quvchi bilan amalga oshirishi lozim bo'lgan ta'lim va tarbiyaviy munosabat turadi. Ana shu munosabatning uzluksiz va barqaror tus olishi muayyan pedagogic texnologiyani keltirib chiqaradi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida yaqin yillarda ta'limning mutlaqo yangi metodikasi ishlab chiqiladi. Bu esa yangicha pedagogic mahorat talab etadi. Shunga ko'ra pedagogic texnologiyada o'qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi metodik mahorat-yangicha pedagogic texnologiya demakdir. Yangicha pedagogic texnologiyaning asosiy maqsadi va vazifasi yangi metodik mahoratni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bilim va qobiliyatining yuzaga chiqishi o'qituvchining ijodkorligi, yangi pedagogic texnologiyasini kasb-mahorati asosida amalgam tatbiq etishdir. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ishlashi, tinimsiz izlanishi ta'limning yangi usullaridan foydalanishi, dars berish jarayonida ko'rsatmali qurollardan, texnika vositalaridan, tarqatma materiallardan, test savollaridan unumli foydalanishi kerak. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini



shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tugʻdirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu oʻqituvchining oʻz mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, oʻziga boʻlgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir.

Oʻqituvchi oʻz nuqtai nazarlariga oʻralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda oʻqituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati oʻzgarib boradi, hissiy tuygʻulari rivojlanadi. Oʻqituvchining innovatsion faoliyati voqelikni oʻzgartirishga, uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilgan. Oʻqituvchi va talaba oʻrtasidagi muloqot namunasining oʻzgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida boʻlish;
- (oʻz imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish, oʻz turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish).

Oʻqituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targʻibotchisi sifatida namoyon boʻladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va taʼlim taraqqiyoti sharoitida oʻqituvchi innovatsiya faoliyatiga boʻlgan zaruriyat quyidagilar bilan oʻlchanadi: Oʻqituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan meʼyorlardan foydalanishni talab qiladi. V.A. Slastenin oʻtkazgan tadqiqotlar oʻqituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iboratmoʻljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;

- ✓ kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning oʻzidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;
- ✓ yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;
- ✓ yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.
- ✓ kreativlik. Bu — hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi boʻlish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, oʻzicha mushohada yuritish, refleksiya;
- ✓ kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konseptsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati.

Demak, oʻqituvchining innovatsion faoliyati oʻz ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Farberman. B.L. Ilgʻor pedagogik texnologiyalar. - T.:2001



2. Narzullaevna K. S., Nilufar T. Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard //Academicia: an international multidisciplinary research journal.– 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 588-596.
3. Kurbanova S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
4. Samadovna R. Z., Narzullayevna K. S., Ergashevna S. G. Technology for the development of logical thinking in students in primary school //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 485-491.
5. Курбанова Ш. Н, Абдуллаева Ф, Очилова Г.О.(2021) Педагогическая технология– целостная система образовательного процесса. IV международная научно-практическая конференция | МЦНС «Наука и просвещение» УДК 37.20-22
6. Ш.Н Курбанова (2020).Преподавание математики в начальных классах.
7. European research: innovation in science, education and technology, Middle European Scientific Bulletin, volume 11 April. 97-100
8. Kurbanova Shoiri N(2022) The Role of Educational Process in the Formation of a Harmoniously Developed Generation and Methods of using Modern Teaching Technologies. IJHCS | Research Parks Publishing (IDEAS Lab) www.researchparks.org | Page 28.
9. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
10. Sh. Qurbonova (2021).Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, Maxsus son.89-92.
11. Курбонова Ш. (2020).Таълим жараёнида замонавий педагогик технология турларининг қўлланиши. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, Maxsus son.102-104.
12. Muhidova O. N. (2020). Methods and tools used in the teaching of technology to children. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), pp. 957-960.
13. Halimovna, K. S., Nurilloevna, M. O., Radzhabovna, K. D., Shavkatovna, R. G., & Hamidovna, R. I. (2019). The role of modern pedagogical technologies in the formation of students' communicative competence. Religación. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades, 4(15), pp. 261-265.
14. Uzokov O.Kh., Muhidova O.N. (2021). Factor determining the efficiency of innovative activities of a teacher. International journal of discourse on innovation, integration and education. Vol. 2 No. 1, pp. 81-84.
15. Muhidova O.N. (2021). Forming technological competence using visual tools technology lessons. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 11 Issue 1, January, pp. 852-855.
16. Muhidova O.N. (2021). Development of creative abilities in technology lessons. International journal of discourse on innovation, integration and education. Vol. 2 No. 2, pp. 119-122.
17. Мухидова О.Н. (2021). Инновационные технологии в учебном процессе. Innovation in the modern education system. Washington, USA: "CESS", Part 2 January, pp. 88-93.



18. Мухидова О.Н. (2020). Компетентностный подход к развитию профессиональной деятельности учителя. Вестник науки и образования (№ 19 (97). Часть 2), С. 88-91.
19. Muhidova O.N., Alekseeva N.N. (2021). Development of students creative abilities in technology lessons. International journal for innovative engineering and management research. Vol 10 Issue 04, pp. 188-191.
20. Мухидова О.Н. (2020). Электронное обучение в высшем образовании. Вестник магистратуры, 1-5 (100) С. 43-44.
21. Muhidova O.N. (2021). Development of students creative abilities. Euro-Asia Conferences, 5(1), pp. 178–181.
22. О.Х.Узаков, О.Н.Мухидова (2021). Научные исследования: основы методологии Science and education scientific journal Vol 2 Issue 12, pp. 376-386.
23. О.Н.Мухидова (2021). Texnologiya fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llash metodikasining ayrim jihatlari Science and education scientific journal Vol 2 Issue 12, pp. 782-792.
24. Мухидова О.Н. (2021). Формирование трансверсальных компетенций – приоритетная задача преподавателей высшей школы. Общество и инновации. 2, 11/S, 394–398.
25. Muxidova O.N. (2022). Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish usullari. Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovasiyalar 2, 2/2, 293-301
26. Muxidova O.N. (2022). Формирование технологической компетентности при использовании наглядных средств на уроках технологии. Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovasiyalar 2, 2/2, 302-307
27. Мухидова О.Н. (2020). Компетентностный подход к развитию профессиональной деятельности учителя. Вестник науки и образования (№ 19 (97). Часть 2), С. 88-91.
28. Мухидова О.Н. (2020). Технология фани ўқитувчиларини тайёрлашда компетенциявий ёндашувлар. Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu. uz) 2/2, 158-164
29. Alijon R Khamraev. Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. Eastern European Scientific Journal. 2019/5/10/
30. Ismoilovich D. D. Theoretical Foundations Of Work On Text Analysis In Primary School.
31. Hamroyev A. R. Modeling Activities Of Teachers When Designing Creative Activities Of Students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 10.
32. Тилавова М. М. и др. Гендерный подход на уроках технологии //European research: innovation in science, education and technology. – 2020.– С. 33-35.
33. Тилавова М. М. Приёмы формирования трудолюбия младших школьников //International scientific review of the problems of pedagogy and psychology. – 2018. – С. 23-25.
34. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. –



Т. 8. – №. 8.

35. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu.uz).– 2021. –Т.3.– №. 34.Хайруллоева Д. System of Creative Exercises and Tasks in Primary School Mother Tongue Textbooks //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
36. Хайруллоева Д. Н. Қ. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi ijodiy mashq va topshiriqlar tizimi //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1235-1242.
37. Хайруллоева Д. The gradual development of native language textbooks for grades 3-4 in primary school //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.